



2023- yil yanvar-mart oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(72) 221-51-26



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-mart -fevral oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **265479,2 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **111204,2 ming. AQSH** dollariga yoki **72,1 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 265479,2 +72,1 %

(2022- y.: 154275,0)



**Saldo**

2023- y.: -168173,5 (2022 r.: - 48217,0)



### Eksport

2023- y.: 48652,9 -8,3 %

(2022- y.: 53029,0)



Tovarlar: **48537,3**



Xizmatlar: **115,6**



### Import

2023- y.: 216826,4 +114,2 %

(2022- y.: 101246,0)



Tovarlar: **216826,4**



Xizmatlar: **0,0**

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralarga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **48652,9** ming AQSH dollariga (**8,3 %** ga kamaydi) va import hajmi **216826,4** ming AQSH dollariga (**114,2 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-168173,5** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGABO‘LGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 102046,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 102046,3</p> <p> 38,4 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 56731,1</p> <p>Eksport: 7295,7 Import: 49435,4</p> <p> 21,4 %</p>	<p><b>Chexiya</b></p> <p>TSA – 29154,7</p> <p>Eksport: 13287,9 Import: 29108,8</p> <p> 11,0 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 21848,1</p> <p>Eksport: 13287,9 Import: 8560,2</p> <p> 8,2 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 20154,9</p> <p>Eksport: 16309,6 Import: 3845,3</p> <p> 7,6 %</p>
<p><b>Litva</b></p> <p>TSA – 6805,8</p> <p>Eksport: 113,2 Import: 6692,6</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 5710,1</p> <p>Eksport: 2363,3 Import: 3346,8</p> <p> 2,2 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 4104,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 4104,3</p> <p> 1,5 %</p>	<p><b>Italiya</b></p> <p>TSA – 2345,8</p> <p>Eksport: 1784,8 Import: 561,0</p> <p> 0,9 %</p>	<p><b>Niderlandiya</b></p> <p>TSA – 2034,5</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 2034,5</p> <p> 0,8 %</p>

Jizzax viloyati jahonning **41** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**38,4** %), XXRda (**21,4** %), Chexiya (11,0 %), Turkiyada (**8,2** %), Rossiyada (**7,6** %), Litvada (**2,6** %), Qozogʻistonda (**2,2** %) va Germaniyada (**1,5** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirgʻiz Respublikasi va Qozogʻiston kabi qoʻshni davlatlar bilan TSAda soʻnggi yillarda katta oʻzgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, soʻnggi uch yilda TSA Tojikiston va Turkmaniston bilan aloqalar oshdi.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BOʻLGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)



Rossiya – 20154,9



Qozogʻiston – 5710,1



Qirgʻiz Respublikasi – 1448,7























Tashqi iqtisodiy faoliyat boʻyicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozogʻiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>2207,1</b>	<b>39779,8</b>	<b>102046,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	103,5	0,0
<i>Import</i>	2207,1	39676,3	102046,3
<b>XXR</b>	<b>35576,9</b>	<b>33152,0</b>	<b>56731,0</b>
 <i>Eksport</i>	16852,9	10940,5	7295,7
<i>Import</i>	18724,0	22211,5	49435,4
<b>Chexiya</b>	<b>1,1</b>	<b>89,5</b>	<b>29154,7</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	45,9
<i>Import</i>	1,1	89,5	29108,8
<b>Turkiya</b>	<b>10055,2</b>	<b>23052,8</b>	<b>21848,1</b>
 <i>Eksport</i>	6640,8	14906,8	13287,9
<i>Import</i>	3414,4	8146,1	8560,2
<b>Rossiya</b>	<b>13317,3</b>	<b>19853,7</b>	<b>20154,9</b>
 <i>Eksport</i>	10305,1	8754,3	16309,6
<i>Import</i>	3012,2	11099,4	3845,3
<b>Litva</b>	<b>3001,8</b>	<b>639,8</b>	<b>6805,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	59,9	113,2
<i>Import</i>	3001,8	579,9	6692,6
<b>Qozog'iston</b>	<b>7025,5</b>	<b>11960,3</b>	<b>5710,1</b>
 <i>Eksport</i>	5033,8	7067,5	2363,3
<i>Import</i>	1991,6	4892,7	3346,8
<b>Germaniya</b>	<b>905,7</b>	<b>2894,4</b>	<b>4104,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	370,3	0,0
<i>Import</i>	905,5	2524,1	4104,3
<b>Italiya</b>	<b>1526,3</b>	<b>3052,7</b>	<b>2345,8</b>
 <i>Eksport</i>	1506,4	2369,6	1784,8
<i>Import</i>	20,0	683,2	561,0
<b>Niderlandiya</b>	<b>3,6</b>	<b>5,5</b>	<b>2034,5</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	3,6	5,5	2034,5



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Eron</b>	<b>797,6</b>	<b>832,7</b>	<b>1718,6</b>
 <i>Eksport</i>	469,7	287,8	718,2
<i>Import</i>	327,9	544,9	1000,4
<b>Daniya</b>	<b>0,0</b>	<b>8,1</b>	<b>1555,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	8,1	1555,3
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>957,2</b>	<b>2500,3</b>	<b>1448,7</b>
 <i>Eksport</i>	411,2	1337,6	1330,3
<i>Import</i>	546,1	1162,7	118,4
<b>Shveysariya</b>	<b>143,1</b>	<b>0,1</b>	<b>1193,4</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	143,1	0,1	1193,4
<b>Afg'oniston</b>	<b>1050,2</b>	<b>2477,2</b>	<b>971,4</b>
 <i>Eksport</i>	1049,1	2172,5	766,5
<i>Import</i>	1,0	304,7	204,9
<b>Pokiston</b>	<b>2054,6</b>	<b>1499,2</b>	<b>874,4</b>
 <i>Eksport</i>	2027,9	542,3	872,4
<i>Import</i>	26,7	956,9	2,0
<b>Hindiston</b>	<b>1189,6</b>	<b>1060,1</b>	<b>866,3</b>
 <i>Eksport</i>	247,8	39,1	434,0
<i>Import</i>	941,8	1020,9	432,3
<b>Tojikiston</b>	<b>1038,5</b>	<b>1884,1</b>	<b>776,4</b>
 <i>Eksport</i>	928,8	675,2	775,2
<i>Import</i>	109,6	1209,0	1,3
<b>Belarus</b>	<b>411,1</b>	<b>659,5</b>	<b>542,7</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	122,6	171,9
<i>Import</i>	411,1	536,9	370,9
<b>Gruziya</b>	<b>95,5</b>	<b>251,0</b>	<b>472,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	107,3	206,9
<i>Import</i>	95,5	143,7	265,9





## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-mart)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>265479,2</b>	<b>172,1</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	64004,2	164,1	24,1
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	2188,9	41,6	0,8
Baxmal	5053,3	459,7	1,9
G'allaorol	128957,1	272,4	48,6
Sharof Rashidov	3685,9	63,7	1,4
Do'stlik	4545,5	73,9	1,7
Zomin	3974,8	41,4	1,5
Zarbdor	4474,4	36,4	1,7
Zafarobod	1992,3	29,5	0,8
Mirzacho'l	1493,0	134,5	0,6
Paxtakor	3996,1	81,9	1,5
Forish	40753,0	332,1	15,4
Yangiobod	351,2	12,9	0,1

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari




Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni G'allaorol **48,6** % ulush bilan **128957,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % ulush bilan **351,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **11,1** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,5** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-mart oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,5** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **88,9** % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, **29367,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **21440,9** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **7926,9** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 20154,9  
Eksport – 16309,6  
Import – 3845,3



### Qozog'iston

TSA – 5710,1  
Eksport – 2363,3  
Import – 3346,8



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 1448,7  
Eksport – 1033,3  
Import – 118,4



### Tojikiston

TSA – 776,4  
Eksport – 775,2  
Import – 1,2



### Belarus

TSA – 542,7  
Eksport – 171,9  
Import – 370,8



### Ozərbayjon

TSA – 289,8  
Eksport – 235,8  
Import – 54,0



### Turkmaniston

TSA – 197,6  
Eksport – 122,3  
Import – 75,3



### Ukraina

TSA – 97,3  
Eksport – 0,0  
Import – 97,3



### Moldova

TSA – 150,2  
Eksport – 132,5  
Import – 17,7



### Armaniston


TSA – 0,0  
Eksport – 0,0  
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**68,6 %**), Qozog'iston (**19,4 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**4,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## JIZZAX VILOYATINING YEOIIGAA'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **27856,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **20175,0** ming AQSH dollari, import hajmi esa **7681,4** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## JIZZAX VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **85** taga yetdi va ular tomonidan **48652,9** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **8,3** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>53029,0</b>	<b>48652,9</b>	<b>113,7</b>	<b>91,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,0	3865,0	0,0	0,0	0,0	7,9
Ichimliklar va tamaki	0,0	4,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1476,1	1310,5	127,9	88,8	2,8	2,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1374,3	3544,8	103,2	257,9	2,6	7,3
Sanoat tovarlari	30757,9	2453,9	99,3	8,0	58,0	5,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	400,7	695,0	109,4	173,4	0,8	1,4
Turli xil tayyor buyumlar	4591,0	7223,5	105,8	157,3	8,7	14,8
Boshqa tovarlar	0,0	29419,6	0,0	0,0	0,0	60,5
Xizmatlar	99,3	115,6	100,1	116,4	0,2	0,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,8 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**5,0 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**7,9 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**14,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	3610,8	31,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	198,8	8,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	54,5	20,4
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	211,3	25,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4,1	147,1
Qog'oz massasi va makulatura	612,8	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	4,1	147,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	1555,2	3,8 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	251,3	19,5 m.


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2076,2	7,3
Rangli metallar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,0	0,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	35,7	37,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	688,6	3,3 m.
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari )	0,7	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	5,1	69,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6854,7	152,3
Har xil tayyor buyumlar	15,9	4,2 m.
Poyabzal	0,0	0,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,0	0,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-mart oyida MDH mamlakatlariga **21440,9** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **44,1 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Pokiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **88,9 %** ni tashkil etdi.



## RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HANKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-mart, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	8754,3	16309,6	85,0	186,3	3	1
Turkiya	14906,8	13287,9	2,2 m.	89,1	1	2
XXR	10940,5	7295,7	64,9	66,7	2	3
Qozog'iston	7067,5	2363,3	140,4	33,4	4	4
Italiya	2369,6	1784,8	157,3	75,3	5	5
Qirg'iz Respublikasi	1337,6	1330,3	3,2 m.	99,5	7	6
Pokiston	542,3	872,4	26,7	160,9	11	7
Tojikiston	675,2	775,2	72,7	114,8	9	8
Afg'oniston	2172,5	766,5	2,1 m.	35,3		9
Eron	287,8	718,2	61,3	2,5 m.	14	10
Hindiston	39,1	434,0	15,8	11,1 m.	26	11
Polsha	1230,3	433,0	2,5 m.	35,2	8	12
BAA	70,0	350,3	0,0	5,0 m.	23	13
Iroq	17,2	319,5	76,9	18,6 m.	29	14
Ozarbayjon	101,0	235,9	31,4	2,3 m.	21	15
Gruziya	107,3	206,9	0,0	192,8	17	16
Belarus	122,6	171,9	0,0	140,1	16	17
Moldova	74,1	132,5	0,0	178,7	22	18
Turkmaniston	105,3	122,3	0,0	116,1	19	19
Litva	59,9	113,2	0,0	188,9	24	20








## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-mart)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>48652,9</b>	<b>91,7</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	26136,4	158,0	53,7
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	1452,9	116,1	3,0
Baxmal	2396,3	399,2	4,9
G'allaorol	1937,9	238,4	4,0
Sharof Rashidov	2296,1	92,4	4,7
Do'stlik	3824,0	138,1	7,9
Zomin	1230,3	38,8	2,5
Zarbdor	3459,8	35,0	7,1
Zafarobod	513,6	9,9	1,1
Mirzacho'l	1363,2	149,6	2,8
Paxtakor	2823,5	60,8	5,8
Forish	906,5	40,4	1,9
Yangiobod	302,8	12,1	0,6

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **53,7** % bilan **26136,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,6** % bilan **302,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023-yil yanvar-mart)

Davlatlar	Ming tonna	ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	2722,5	1383,6	38,3
 BAA	270,0	350,3	9,7
 Rossiya	798,7	330,8	9,2
 Iroq	345,8	319,5	8,8
 Pokiston	117,0	312,0	8,6
 Turkiya	173,4	292,5	8,1
 Ozarbayjon	138,1	207,1	5,7
 Xitoy	265,0	185,5	5,1
 Afg'oniston	49,9	35,2	1,0
 Eron	48,0	34,4	1,0
 Boshqa davlatlar	67,0	159,8	4,4

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-mart oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **38,3** % i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **4,2** barobar ko'p.



## JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-mart oyida import hajmi **2168261,3** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **214,2 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**73,5 %**), sanoat tovarlari (**2,7 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,4 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **115580,4** ming AQSH dollariga ko'paydi va **216826,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>101246,0</b>	<b>216826,3</b>	<b>2,4 m.</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7864,9	3475,6	159,1	44,2	7,8	1,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2039,8	2795,9	2,8 m.	137,1	2,0	1,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	1171,2	1038,1	2,1 m.	88,6	1,2	0,5
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	7241,5	5277,5	134,4	72,9	7,2	2,4
Sanoat tovarlari	10467,9	5759,8	184,4	55,0	10,3	2,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	69349,5	159285,3	3,3 m.	2,3 m.	68,5	73,5
Turli xil tayyor buyumlar	3111,3	2254,6	68,4	72,5	3,1	1,0
Boshqa tovarlar	0,0	36938,44	0,0	0,0	0,0	17,0
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1781,2	70,9
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	454,9	21,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	0,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metall parchalari	43,0	0,0
Probka va yog'och-taxtalar	126,7	2,9 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	66,9	24,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	621,0	166,6
Ko'mir, koks va briketlar	417,0	52,2
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	585,7	37,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1734,8	64,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	529,8	55,1
Noorganik kimyo moddalari	159,2	33,1


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	1465,3	45,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	369,6	40,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2178,2	44,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	103,0	140,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	104953,7	2,4 m.
Aniq sohalarda uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	8272,3	44,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	43093,3	9,7 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	838,1	53,9
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1408,5	2,6 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	579,6	66,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,6	0,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	28,7	10,3 m.



2023- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlari import ulushi **3,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **18,5 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-mart oyida **40** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



## RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-mart, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	39676,3	102046,3	18,0 m.	2,6 m.	1	1
XXR	22211,5	49435,4	118,6	2,2 m.	2	2
Chexiya	89,5	29108,8	79,1 m.	325,2 m.	25	3
Turkiya	8146,1	8560,2	238,6	105,1	4	4
Litva	579,9	6692,6	19,3	11,5 m.	13	5
Germaniya	2524,1	4104,3	2,8 m.	162,6	7	6
Rossiya	11099,4	3845,3	3,7 m.	34,6	3	7
Qozog'iston	4892,7	3346,8	2,5 m.	68,4	5	8
Niderlandiya	5,5	2034,5	154,2	370,1 m.	33	9
Daniya	8,1	1555,3	0,0	192,0 m.	32	10
Shveysariya	0,1	1193,4	0,1	0,0	42	11
Eron	544,9	1000,4	166,2	183,6	14	12
Italiya	683,2	561,0	34,2 m.	82,1	12	13
Hindiston	1020,9	432,3	108,4	42,3	10	14
Latviya	188,0	411,6	2,8 m.	2,2 m.	22	15
Belarus	536,9	370,9	130,6	69,1	15	16
Bangladesh	445,1	366,3	153,7	82,3	16	17
Gruziya	143,7	265,9	150,5	185,0	23	18
Afg'oniston	304,7	204,9	0,0	67,2	18	19
Fransiya	11,2	192,4	39,7	17,1 m.	31	20






## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI


(2023-yil yanvar-mart)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>216826,4</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	37867,8	168,6	17,5
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	735,9	18,4	0,3
Baxmal	2657,0	5,3 m.	1,2
G'allaorol	127019,2	2,7 m.	58,6
Sharof Rashidov	1389,8	42,1	0,6
Do'stlik	721,5	21,3	0,3
Zomin	2744,5	42,8	1,3
Zarbdor	1014,6	42,3	0,5
Zafarobod	1478,7	94,8	0,7
Mirzacho'l	129,8	65,3	0,1
Paxtakor	1172,5	4,9 m.	0,5
Forish	39846,5	4,0 m.	18,4
Yangiobod	48,5	20,6	0,0

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni G'allaorol **58,6** % bilan **127019,2** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,02** % bilan **48,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-mart oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **159285,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **229,7 %** ni tashkil etdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **73,5 %** ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart)




2023- yil yanvar-mart oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **89935,8** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – 70469,9 ming AQSH dollari (**44,2 %**), XXR – **43777,7** ming AQSH dollari (**27,5 %**) va Chexiya – **29042,3** ming AQSH dollari (**18,2 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-mart oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **5759,8** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **45,0** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **2,7** % ni tashkil etdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-mart, ulushi, % da)

1466,4 mln. AQSH doll.  
ulushi – 25,5 %



XXR

1192,7 mln. AQSH doll.  
ulushi – 20,7 %



Turkiya

776,0 mln. AQSH doll.  
ulushi – 13,5 %



Germaniya

748,4 mln. AQSH doll.  
ulushi – 13,0 %



Rossiya

708,4 mln. AQSH doll.  
ulushi – 12,3 %



Qozog'iston



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2178,2** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**1465,3** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**369,6** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**261,1** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.